

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA
TARBIYALANUVCHILARNING MATEMATIK TUSHUNCHALARINI
RIVOJLANTIRISHDA SON-SANOQ FAOLIYATINI OLIB BORISH METODIKASI**

Muxtorjonova Xusnobod Karimjon qizi

-FarU,talabasi Saidova Nigora Olimovna - FarDU, Katta o'qituvchi, p.f.f.d(PhD)

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'limga tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida: "Uzlucksiz ta'limga tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'limga tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, MTTlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-tehnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, MTTlariga bolalarni qanirab olishni keskin oshirish, ta'limga tarbiya jarayonlariga zamонавиј dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash" alohida muhim vazifa sifatida ko'rsatib o'tildi. Mazkur maqolada maktabgacha ta'limga tashkilotlaridagi bolalarni tarbiyalash jarayonida matematik tushunchalarini rivojlantirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'limga tashkilotlari, tarbiya, matematika, matematik tasavvur, maktabgacha yoshdag'i bola, matematik tushuncha, son-sanoq faoliyati.

Maktabgacha ta'limga tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, maktabgacha ta'limga tashkilotlarini davlat tomonidan boshqarishning samarali tizimini yaratish hamda uning moddiy-tehnika bazasini mustahkamlash maqsadida so'nggi yilda qabul qilingan qat'iy choratadbirlar natijasida Maktabgacha va muktab ta'limga vazirligi va uning joylardagi hududiy bo'linmalari tashkil qilindi. Davlatimiz rahbari tomonidan ta'limga tizimining ilk poydevori qo'yiladigan maktabgacha ta'limga sohasini yangi pog'onaga olib chiqish, bolalarning iqtidori hamda salohiyatini ilk yoshlardanoq to'g'ri yo'naltirish borasida juda ko'p tashabbuslar hayotga tatbiq etilmoqda va bu sa'y-harakatlar bolalar ta'limga tarbiyasida o'zining ijobjiy natijasini bermoqda.

Maktabgacha yoshdan bolalarda matematik bilimlarning yetarli bo'lishiga katta ahamiyat berish muhimdir. Chunki, inson hayoti davomida matematik hisob-kitoblarga teztez duch keladi, ya'ni matematik bilimlar har qadamda kerak bo'ladi. Agar biz maktabgacha yoshdan boshlab bolalarni matematika olamiga turli qiziqarli usullardan foydalangan holda qiziqtira olsak, matematik bilimlar bilan yetarli darajada qurollantirsak, ular maktabda barcha bilimlarni o'zlashtirishda a'lo baholarga o'qib, yuqori natijalarga erishadilar, hayoti davomida xalqimiz uchun foydali kasbni tanlash va chuqur egallashda qiyalmaydilar. Chunki qaysi kasbni olmaylik uni mahorat bilan bajarishga albatta matematik bilimlar kerak bo'ladi. Shu sababli turli ta'limga usullar, qiziqarli she'rlar, topishmoqlar orqali bolalarning yoshiga mos matematik bilimlar berib borishga katta ahamiyat berish muhimdir.

Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O'tgan davr ichida matematika ilm-fani va ta'limga yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston

Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi talablari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni istiqlol mafkurasi asosida sog‘lom, har tomonlama rivojlangan shaxssifatida tarbiyalash va maktab ta’limiga tayyorlashdan iboratdir. «Son-sanoq» bo‘limi «Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish» bo‘limining asosiy o‘zagidir. Bolalarni son- sanoqqa o‘rgatish to‘rt bosqichni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat.

1- Bosqich. Bu bosqichda bolalar bir xildagi narsalar to‘plami bilan ish ko‘rib, ularni ajratadilar va bir joydan ikkinchi joyga olib qo‘yib, nimalarnidir quradilar. Bu vaqtda bolalar butun to‘plamni ayrim elementlarga ajratib, tovush yoki harakatlar yig‘indisi elementlarning bir xildagi takrorlanishiga ahamiyat bera boshlaydilar.

2-bosqich. Bu bosqichda bolalar bir to‘plam elementlarini ikkinchi to‘plam elementlari bilan solishtirish malakasini amaliy egallab, elementlarning o‘zaro bir qiymatli munosabatda bo‘lishini aniqlay boshlaydilar. To‘plamlar elementlarini solishtirishni mashq qilish natijasida elementlar orasida tenglik yoki tengsizlikni sezsa boshlaydilar.

3-bosqich. Bu bosqichda bolalar sanoq operatsiyasini egallay boshlab, solishtirilayotgan to‘plamlar elementlarini sanab, sonlarni o‘rinli ishlata boshlaydilar. Bolalar ongida natural sonlar qatori to‘plam tushunchasining shunday bir andozasi bo‘lib, uning yordamida istalgan to‘plamning elementar miqdorini aniqlash mumkinligini tushuna boshlaydi.

4-bosqich. Bunda bolalar qo‘shti sonlar orasidagi to‘g‘ri va teskari munosabatlarni aniqlaydi, son tushunchasini chuqurroq o‘zlashtirib, natural sonlar qatori ma‘lum bir sistema ekanini bilib oladilar. Shunday qilib, bolalarning sanoq faoliyati jarayonida, avvalo, to‘plamlar haqidagi tasavvuri tarkib topadi, so‘ngra sonlar va sonlar qatori sistemasi tushunchasi tarkib topadi. Bolalarning sanoq faoliyati taraqqiyotida to‘rtinchi bosqich ularni yangi faoliyatga tayyorlaydi, bu esa bolalarning aniq to‘plamlar bilangina emas, balki sonlar bilan ham ishlashi mumkinligini ayon qilib qo‘yadi.

Har bir bosqich bir biri bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi. Bolalar bu bilimlarni yaxshi egallashlari kerak. Birinchi bosqichni yaxshi o‘zlashtirmagan bola ikkinchi bosqichda qiyinalishi mumkin.

Kichik guruhda bolalarga alohida predmetlardan guruh hosil qilishni (barcha qizil, barcha sariq, barcha yumaloq va boshqa predmetlarni guruhlash), guruhdan bir predmetni ajratishni, “ko‘p”, “bitta”ni farqlashni, xonada qaysi predmetlar ko‘p, qaysi bittaligini, “bittadan”, “bitta ham” iboralarini tushunishni o‘rgatiladi. Maktabgacha yoshdagi kichik guruh bolalarini sanoqqa o‘rgatishdagi bosh vazifalardan biri bir to‘plam elementlarini ikkinchi to‘plam elementlari bilan taqqoslash, solishtirish yo‘li orqali bolalarni to‘plamlarni taqqoslashga o‘rgatishdan iborat. Bu dastlabki bosqich kelgusida sanoq faoliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bola miqdoriy taqqoslash usullarini egallaydi. Bola sanashni bilmaydi, shu sababli u oldin taqqoslanayotgan to‘plamlarning qaysinisi ko‘p, qaysinisi kam ekanini, yoki ular teng quvvatli ekanini aniqlashni o‘rganadi. Bolalarda kelgusida matematik tasavvurlarni rivojlantirish ko‘p jihatdan sanoqqa o‘rgatishning boshlang‘ich davriga bog‘liq. O‘qitishni buyumlarning sifat, xossalalarini ajratishga oid mashqlardan boshlash kerak. Masalan, bir qanchao‘yinchoqlar ichidan xuddi tarbiyachi

qo‘lidagidek o‘yinchoqni topish taklif qilinadi, «Xuddi shunday kubchani (bayroqchani, sharni) ber». Shundan keyin har xil rangli (o‘lchamli, shakldagi) 2—3 ta buyum orasidan xuddi shu rangdagi (o‘lchamli, shakldagi) buyumni tanlash topshirig‘i beriladi. Navbatdagi bosqich berilgan belgi-alomatlari bo‘yicha buyumlarni tanlash va guruhlarga ajratishga oid mashqlardan iborat bo‘lishi kerak. Masalan: «Qizil rangli hamma kubchalarni mana bu qutiga sol, bu qutiga esa hamma kichik matryoshkalarni yig‘, mana bunisiga esa hamma katta matryoshkalarni yig‘». Bunday mashqlar natijasida bolalar har xil buyumlarning umumiyligi belgilari bo‘yicha bir guruhga birlashtirish mumkin ekanini tushuna boshlaydilar: «Bular qo‘g‘irchoqlar», «Bular koptoqlar», «Bular bayroqchalar» kabi. Tarbiyachi bolalarni guruhdagi buyumlarning biror qismi uchungina umumiyligi bo‘lgan belgilarni ko‘ra olishga o‘rgatadi. Masalan, bayroqchalar ko‘pligini, ammo ularning ba’zilari sariq, ba’zilari esa ko‘k ekanini ko‘rsatadi. (Sariq bayroqchalar ko‘p, ko‘k bayroqchalar ham ko‘p).

O‘rta guruhda son- sanoq bo‘yicha tasavvurlarini shakllantirishda bolalarga to‘g‘ri usullardan foydalanib 3, 4, 5 sonlarining hosil bo‘lishi bilan tanishtirish va bu sonlar doirasida sanashni o‘rgatish: bir qator qo‘yilgan predmetlarni sanab, sonni tartib bilan aytish, sonni ot bilan moslashtirib, oxirgi sonni sanalgan predmetlarga taalluqli qilib aytish, masalan, “Bir, ikki, uch, - hammasi bo‘lib uchta qalam”, “Bir, ikki, uch, to‘rt - hammasi bo‘lib to‘rtta qalam” tarzida. 3, 4, 5 sonlari doirasidagi sonli kartochkalar bilan tanishtirishda bolalarga 3, 4, 5 gacha bo‘lgan sanoq va tartib sonlarni o‘rgatish, “Qancha?”, “Qaysi?”, “Nechanchisi?”, “Sanoq bo‘yicha nechanchi?”, “Nechanchi o‘rinda?”, “Hammasi bo‘lib nechta?” savollariga javob berib, sanoq va tartib sonlardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatiladi. Bolalarga predmetlarning ikki guruhini qiyoslashni mashq qildirish va taqqoslashni o‘rgatish, masalan (“Bir, ikki, uch, to‘rt, besh - hammasi bo‘lib beshta koptoq”, “Bir, ikki, uch, to‘rt - hammasi bo‘lib to‘rtta kubik. Beshta ko‘p, to‘rtta kam. Koptoqlar kubiklardan bitta ko‘p ekan”).⁵ Gacha bo‘lgan sonni o‘zidan kichik bo‘lgan ikkita songa (buyumlar misolida) ajratish. Masalan, “Senda 5 ta olma bor, ikkitasini ukangga berding. O‘zingda nechta qoldi?” degan savol bilan murojaat qilish.

Predmetlarning kam guruhiga yetishmagan predmetni qo‘sishni yoki ko‘p guruhdan bitta ortiqcha predmetni olishni va guruhlar o‘rtasida bir xil miqdordagi har xil predmetlardan iborat tenglik hosil qilishni o‘rgatish. (“Kartochkaning yuqori qatorida uchta anor, pastki qatorida to‘rtta olma, anorlar olmalardan bitta kam. Agar yana bitta anor qo‘ysak anorlar va olmalar soni teng bo‘ladi”).

Biz o‘z o‘rganishlarimizda maktabgacha ta‘lim tarbiyalanuvchilarida matematik tushunchalarini rivojlantirishda son-sanoqni faoliyatini tadqiq qilishda shunday xulosaga keldik. Shaxsning qiziqishlari ta‘lim jarayonida inobatga olinsa, ularga individual yondashilsa, mashg‘ulotdan tashqari alohida shug‘ullanilsa, ko‘rik-tanlov, sayohatlar tez-tez uyuştirilsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng miqyosda foydalanilsa, shuningdek, ta‘lim turlarini qamrab oluvchi tizim - infologik model bo‘yicha tadqiq qilinsa, uning ta‘limiy-tarbiyaviy ahamiyati yuqori bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

Demak, bugungi kunda MTTlari o‘quv jarayonini mukammallashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv -metodik - mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi axborot tizimi infologik modelini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu, bиринчи navbatda, maktabgacha ta‘lim va

boshlang‘ich ta’lim bosqichlari o‘rtasida uzlusizlik va uzviylikni ta’minlab, aqliy rivojlanish ko‘rsatkichi, bilim saviyasi ortishiga olib keladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PF-269-sonli 2022-yil 21dekabrdagi qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi negizida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligi tashkil etildi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiytadqiqlotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. G.E.Djanpeisova Matematik ta’lim - Toshkent: 2021. 382 b
4. Nigora Olimovna, S. (2022). **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA HAR BIR YOSH GURUHIDA TEVARAK ATROFNI IDROK ETISHNING O_ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.** Results of National Scientific Research, 1(1), 115-119.
6. Saidova, N. O. (2024). **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR HAYOTIDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI.** ILM FAN XABARNOMASI, 1(1), 156-158.
7. Saidova N. DIFFERENT APPROACHES TO DETERMINE THE ESSENCE OF PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS //Science and innovation. - 2023. - T. 2. - №. B2. - C. 503-506.
8. Saidova N. O., Ahmadjonova D. M. **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA KICHIK GURUH BOLALARINING MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI** //Science and innovation. - 2024. - T. 3. - №. Special Issue 25. - C. 251-253.
9. Saidova N. O., Yoqubjonova H. A. **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH. MULTIMEDIA TUSHUNCHNASI VA UNING MOHIYATI** //Science and innovation. - 2024. - T. 3. - №. Special Issue 25. - C. 335-338.
10. Saidova N. O., Axmedova T. S. **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARDA ELEMENTAR MATEMATIK TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISHDA TANGRAM USULIDAN FOYDALANISH** //Молодые ученые. - 2023. - T. 1. - №. 18. - C. 28-30.
11. Saidova N. O., Yigitaliyeva M. S. Maktab yoshidagi bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish //Results of National Scientific Research International Journal. - 2022. - T. 1. - №. 3. - C. 53-59.